

## AVAZ O'TAR IJODIDA TASAVVUF TUSHUNCHALARI TALQINI

SHaxnoza Buriyeva

Termiz davlat universiteti 1-kurs

Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti) yo'nalishi magistranti.

Termiz, O'zbekiston.

+998948940119. [sh.b.alisherovna@gmail.com](mailto:sh.b.alisherovna@gmail.com)<https://doi.org/10.5281/zenodo.11918747>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada Xorazm adabiyotining yetuk ijodkori Avaz O'tar ijodi haqida so'z yuritilib, shoir asarlarining o'z davrida hamda bugungi kunga qadar o'ranilishi borasidagi tadqiqotlar tahlil qilingan. Shuningdek, Avaz O'tar devonidan joy olgan ayrim g'azal, ruboiylarida tasvirlangan tasavvufiy tushunchalar mazmuni ham tavsiflangan.

**Kalit so'zlar:** tazkira, tasavvuf, orif, suroh, sidq shamshiri, xoliq.

## THE INTERPRETATION OF THE CONCEPTS OF SUFISM IN THE CREATION OF AVAZ O'TAR

*Abstract.* This article talks about the work of Avaz O'tar, a mature creator of Khorezm literature, and analyzes the research on the interpretation of the poet's works in his time and until today. Also, some ghazals from Avaz O'tar's divan, and the content of mystical concepts described in his rubai are also described.

**Key words:** tazkira, mysticism, arif, surah, sidq shamshiri, khalik.

## ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КОНЦЕПЦИЙ СУФИЗМА В СОЗДАНИИ АВАЗ О'ТАР

*Аннотация.* В данной статье рассказывается о творчестве Аваза Отара, зрелого творца хорезмской литературы, и анализируются исследования по интерпретации произведений поэта в его время и до наших дней. Также описаны некоторые газели из дивана Аваза Отара и содержание мистических понятий, изложенных в его рубаи.

**Ключевые слова:** tazkira, мистика, ариф, сура, сидк шамшири, халик.

XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Xorazm adabiy muhiti uchun rivojlangan davr bo'ldi. Bu davrda ijod qilgan Munis, Ogahiy, Feruz, Komil Xorazmiy, Tabibiy, Bayoniy, Komiljon Devoniy singari Avaz O'tar ham o'zining adabiy merosi bilan adabiyotga katta hissa qo'shdi. Qisqa umr ko'rishiga qaramasdan uning bizgacha o'ndan ortiq lirik janrlarni o'z ichiga olgan ikkita yirik devoni "Saodat ul-iqbol", "Devoni Avaz" yetib kelgan. Avaz O'tar asarlari haqidagi ma'lumotlar uning ustoz Ahmad Tabibiyning "Majmuai shuaro payraviy Firuz shohiy" tazkirasida, Muhammad Yusuf Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy" asarida, Jumaniyoz

Hivaqiyning “Tarixi gulshan” risolasida hamda o’sha davrda yozilgan bayozlarda uchraydi. Uning ijodiy merosi bugungi kunda Sharqshunoslik institutining qo’lyozmalari fondida (942, 7102, 3451 rqamlari ostida) saqlanib kelinmoqda.

Avaz O’tar ijodi haqida hozirgacha bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, Y.Yusupovning “Avaz O’tar o’g’li” nomli maqolasi, “Avaz” hamda “Xorazm shoirlari” nomli kitoblari, V.Rahmonovning “Avaz O’tar o’g’li” nomli devoni, shuningdek, N.Qobilov, V.Mo’minova, I.Haqqulning “Avaz va uning adabiy muhiti” nomli monografiyasini shular qatorida ta’kidlash lozim. Ushbu ilmiy asarlarda keltirilgan ma’lumotlar shoir hayoti va ijodining o’ziga xos tomonlari, asarlari adabiy g’oyasining o’rganilishiga katta yordam bermoqda.

Avvalo, shuni ta’kidlash joizki, Avaz O’tar hayotida bir qancha qiyinchiliklarga uchragan (nohaq ayblovlar, tuhmatlar sababli Boboeshon qabristonida kishanda saqlanadi), shu boisdan uning she’rlarida ruhiy evrilishlarning ta’siri sezilib turadi. U shunday qiyin sharoitlarda ham ijod qilishda davom etgan va ayrim she’rlari o’sha davr vaqtlari matbuotida ( “Oyina” , “Vaqt” , “Mulla Nasriddin” kabi ) nashr etilgan.[7-5]

Avaz O’tar ijodining asosiy qismi erk, ozodlik, ma’rifatparvarlik hamda muhabbat mavzusida yozilgan bo’lsa-da, ularda tasavvufiy tushunchalar ham salmoqli o’rin egallaydi. Jumladan, “**Tarahhum qil mani mahzuni zora**” deb boshlanuvchi g’azalida ijodkor **soqiy, qadah, judolig’ xanjari, dor** kabi so’zlar orqali hajr g’amida qiynalayotgan oshiq holini aks ettiradi.

Qilib lutfu karam bu lahza, soqiy,

Qadah sun man hazinu badxumora.

Ushbu baytda oshiq soqiydan uning qadahini to’latib, marhamat ko’rsatishini iltimos qiladi. Ma’lumki, tasavvufda soqiy ishq mayini ko’ngilga quyuvchi orif ramzidir. Qadah esa ishqdan mast bo’lgan oshiqning ko’ngli ramzi bo’lib, ijodkor ko’ngilni haqiqiy ishq bilan mast bo’lishi orqali dunyoning g’am-anduhlari, adolatsizliklarini bartaraf etishiga umid qiladi. Uning fikricha, haqiqiy komil insongina chin muhabbatni anglay oladi, g’ofil, jaholatga yo’liqqan inson asl maqsadni ham unutadi.

Oqil ersang, ey birodar, ichgil qadoh,

Kim bergusi ul joningga ko’b rohati roh

G’am daf’ini qilmoq istasang shom-u saharda

Kir dayr ichiga olib bir ilkinga suroh

Bir qarashda bu satrlardan shoirning asl maqsadi yashirin ko’rinsada, **oqil, qadoh, dayr, suroh** kabi tushunchalar hamda oxirgi misradan anglash mumkinki, bu dunyoga kelgan har bir

inson sinovlarni yengib o'tishi uchun qo'lida quroli ,ya'ni ilmi va albatta, qalbida haq ishqi bo'lishi lozim. Shundagina shubhalardan qutulish va g'amni da'f qilish mumkin.

Ayni shu kabi qarashlar Avaz O'tarning ruboiylaridan ham o'rin olgan bo'lib, ularda shoir tariqatga kirgan inson bu dunyoning tashvishlarini, mol-dunyo g'amini unutib o'zligini aglashi, nafsini jilovlashi kerakligini uqtiradi. Jumladan,

Behuda qilib turfa alolo, ey shayx,

Dahr ichra o'zingni qilma rasvo, ey shayx

Qatl ayla o'zingni sidq shamshiri bila,

Qilg'uncha riyohi hiyla barpo, ey shayx

ruboiysida ijodkor tasavvufning asl mohiyatini ochib bergan. Ma'lumki, shayx so'fiylar ichida katta martabaga ega bo'lgan zot. Shunday ekan, ularning qiladigan ishi riyo va hiyla emas, insonlarni to'g'ri yo'lga boshlash bo'lishi lozim. Shayx Nuriy aytganlaridek: "Tasavvuf nafs lazatlaridan voz kechishdir". [1-33] Avaz O'tar ham ayni shu fikr bilan shayxlarga murojaat qiladi va o'zini bu dunyodan uza olmagan riyokorlar sidq shamshiridan halok bo'lishini ta'kidlaydi.

Shuningdek, Avaz O'tar ijodining ahamiyatli va o'ziga xos tomoni shundaki, u o'z davrining ma'rifatli kishisi o'laroq millatni to'g'ri yo'lga boshlash uchun adabiyotdan ilhom oldi. Ma'lumki, adabiy asarlarning markazida inson, uning ruhiyat dunyosi yotadi. Insonning kechinmalari esa asosan ikki yo'nalishda kechadi:

- Biri insonning oliy haqiqatga, Haqqa borliqning mohiyatiga, sodda qilib aytsak, maxluqning xoliqqa munosabati, nisbati masalasi;

-Ikkinchisi, insonning o'zi singari maxluqlarga, ya'ni o'zga insonlarga, atrof-voqelik mavjud jamiyatga munosabati.[3-13]

Avaz O'tar mana shu ikki jihatni birlashtira olgan ijodkordir. U o'zigacha davom etib kelayotgan an'analarni chetlab o'tib, oddiy xalq tushunishi uchun oson bo'lgan uslubda she'rlar yozdi.

## REFERENCES

1. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. 7. Komil inson. 33-bet
2. Tanlangan asarlar. Toshkent. 1956
3. N. Komilov, A. Quronbekov, M. Imomnazarov, B. Nazarov, G. Rixsiyeva, M. Qalandarov. Badiiy adabiyot va tasavvuf timsollari. Toshkent-2010
4. Avaz O'tar o'g'li. "Devon". T, 1976-yil

5. “Avaz”. Saylanma. T, 1984-yil
6. N.Qobulov, V. Mo’minova, I.Haqqulov “Avaz va uning adabiy muhiti”. T,1987-yil
7. <https://kh-davron .u>